

## Qurbaqa



**Qurbaqa** – suvda va quruqlikda yashovchi jonivor. Qurbaqalar chuchuk suv havzalarida hamda quruqlikda yashay oladi.

Qurbaqalarning tanasi kichik, orqa oyoqlari yirik bo'ladi. Shu tufayli u juda balandga sakray oladi va xavf tug'ilganda tezda berkinadi. Dumaloq va silliq tanasi suvda tez suzishga yordam beradi.

Ayrim qurbaqalar daraxtga chiqa oladilar, ayimlari esa hatto daraxt ildizlari ostiga uya quradilar.

Qurbaqaning orqa panjasida suzgich pardalar bor. Shuning uchun suvda yaxshi suzadi. Qurbaqa panjasining shakli olimlarning g'avvoslar uchun suvosti suzish moslamasi – suzgich panjalar ixtiro qilishiga turtki berdi.



**Qurbaqa** pashsha, chivin va boshqa hasharotlar bilan oziqlanadi. Qurbaqaning tili uzun va yopishqoq bo'lib, yonidan uchib o'tayotgan hasharotni ko'rsa, tilini oldinga chiqaradi, o'lja unga yopishadi va qurbaqa bu yopishib qolgan o'ljani tezda yutib yuboradi.

Tabiatda qurbaqalarning xili juda ko'p. Masalan, Kuba qurbaqasi jumjiloq barmoqning tirnog'icha keladi. Kamerunning golif qurbaqasi esa aksincha, 6 kilogrammgacha vaznga ega bo'ladi.



4

**QR-kodni  
skanerlang**

1



2



3



4



5



6



7



8



9



10



11